XALQ DEPUTATLARI JIZZAX SHAHAR KENGASHINING
QARORI

2023 - yil 10 - aprel VI-51-55-3-55-K/23 Jizzax shahar hokimligi

Jizzax shahar hududidagi mahallalarda joylashgan nomsiz va nomlari takrorlangan ko‘chalar, qabristonlar, ziyoratgohlar, istirohat bog‘lari hamda xiyobonlarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 303-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-son hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Jizzax shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining ekspert komissiyasining 2022-yil 3-avgusdagi 08-06632-son hamda 2022-yil 22-avgustdagi 08-07253-sonli xulosasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Jizzax shahar mahallalardagi mavjud nomsiz hamda nomlari takrorlangan ko‘chalarga tavsiya etilgan nomlar 1-ilovaga, shahardagi mavjud qabristonlarga tavsiya etilgan nomlar 2-ilovaga, shahardagi mavjud maydon, ziyoratgoh, xiyobon va istirohat bog‘iga tavsiya etilgan nomlar 3-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar statistika bo‘limi (X.Shokirov), O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlar palatasi Jizzax

shahar filiali (S.Ergashev), shahar arxitektura va qurilish bo‘limi (O.O‘rinboyev) hamda tegishli mutasaddi va davlat organlariga amaldagi tartibda nom berilgan va nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalar, qabristonlar, maydon, ziyoratgoh, xiyobon va istirohat bog‘larining tarkibiy qismlarini davlat reyestriga kiritish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar IIO FMB (B.Naimov) nom berilgan va nomlari o‘zgartirilgan hududlarda aholining fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Jizzax shahar hokimi o‘rinbosari (X.Onalboyev), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Qobilov), Mahalla va nuroniylarni qo‘llab- quvvatlash bo‘limi (B.Soatov)larga:

Mahallalardagi nomsiz ko‘chalar, qabristonlar, ziyoratgohlar, istirohat bog‘lari, hamda xiyobonlarga tavsiya etilgan nomlarini qonunchilikda belgilangan tartibda qonuniylashtirish choralarini ko‘rsin hamda aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish, belgilangan tartibdazamonaviy ko‘rinishda, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida O‘zDSt texnik shartlariga javob beradigan peshlavhalar yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

6. Belgilansinki, geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarini moliyalashtirish mahalliy byudjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

7. Shahar hokimi maslahatchisi (S.Sherqo‘ziyeva)ga:

10 kunlik muddatda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga Geografik obyektlarning nomlari davlat reyestriga kiritish uchun tegishli hujjatlar yuborish;

qarordan nusxa geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasiga yuborish vazifasi yuklatilsin.

8. Shahar televideniyasi (B.Eshonqulov), “Jizzax ovozi” gazetasi tahririyati (S.Donishev) va shahar hokimligi axborot xizmati v.b. (B.Tog‘ayev)larga ushbu qarorni tegishli tartibda ommaviy axborot vositalari orqali rasmiy e’lon qilsin.

9. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Jizzax shahar Kengashi doimiy komissiyalari va shahar hokimining o‘rinbosari S.Silliyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **K.Xolmurodov**

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2023 yil 10 apreldagi
VI-51-55-3-55-K/23-son qaroriga
1-ilova

Geografik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi shahar komissiyasining shahardagi mavjud nomsiz hamda nomlari takrorlangan ko‘chalarga tavsiya etilgan nomlarini ko‘rib chiqish va nomlash to‘g‘risida

TAKLIFLAR

T/p		Gegrafik obyektning turi	Jiylashgan o‘rni	Gegrafik obyektning amaldagi nomi	Shahar komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh
1	1	Ko‘cha	Ittifoq MFY	Nomsiz	**Nihol**	O‘z ma’nosida
2	1	Ko‘cha	Yoshlik MFY	Nomsiz	**Katta bog‘don**	O‘z ma’nosida
3	1	Ko‘cha	Nurliobod MFY	Nomsiz	**Ibrat**	O‘z ma’nosida
4	2	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Olimlar 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
5	3	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Navnihol 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
6	4	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Navnihol 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
7	5	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Navnihol 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
8	1	Tor ko‘cha	Qaliya MFY	Nomsiz	**To‘ptolobod 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
9	1	Ko‘cha	Navro‘z MFY	Nomsiz	**Muborak**	O‘z ma’nosida
10	2	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Muborak 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
11	3	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Muborak 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
12	4	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Muborak 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
13	5	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Muborak 4-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
14	6	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Muborak 5-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
15	7	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Muborak 6-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
16	8	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Yetimtog‘ 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
17	9	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Mirsaid Baraka 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
18	1	Ko‘cha	Do‘stlik MFY	Nomsiz	**Yuksalish**	O‘z ma’nosida
19	2	Ko‘cha		Nomsiz	**Ahillik**	O‘z ma’nosida
20	3	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Yuksalish 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
21	4	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Yuksalish 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
22	5	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Baxmallik 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
23	6	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Sadaf 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
24	7	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Saroytepa 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
25	8	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qoraabdol 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
26	1	Tor ko‘cha	Tinchlik MFY	Nomsiz	**Kamarli 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
27	2	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Kamarli 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
28	3	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Kamarli 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
29	5	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Saxovatli 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
30	6	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Saxovatli 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
31	1	Tor ko‘cha	Alisher Navoiy MFY	Nomsiz	**Toqchillik 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
32	2	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Orombaxsh 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
33	1	Ko‘cha	Obod MFY	Nomsiz	**Xiyobon**	O‘z ma’nosida
34	2	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Bog‘ko‘cha 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
35	3	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Bog‘ko‘cha 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
36	4	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Bog‘ko‘cha 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
37	5	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Bog‘ko‘cha 4-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
38	6	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Tutli 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
39	7	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Furqat 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
40	8	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Furqat 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
41	9	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Ko‘tarma 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
42	10	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Ko‘tarma 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida

43	1	Ko‘cha		Nomsiz	**Darmon**	O‘z ma’nosida
44	2	Ko‘cha		Nomsiz	**O‘rtabo‘z**	O‘z ma’nosida
45	3	Ko‘cha		Nomsiz	**Zahmatkash**	O‘z ma’nosida
46	4	Ko‘cha		Nomsiz	**Shafoat**	O‘z ma’nosida
47	5	Berk ko‘cha		Nomsiz	**Qizg‘aldoq**	O‘z ma’nosida
48	6	Ko‘cha		Nomsiz	**Ixlos**	O‘z ma’nosida
49	7	Ko‘cha		Nomsiz	**Movaraunnahr**	O‘z ma’nosida
50	8	Ko‘cha		Nomsiz	**Quvonch**	O‘z ma’nosida
51	9	Ko‘cha		Nomsiz	**istirohat**	O‘z ma’nosida
52	10	Ko‘cha		Nomsiz	**Zamondosh**	O‘z ma’nosida
53	11	Ko‘cha		Nomsiz	**Qadrdonlar**	O‘z ma’nosida
54	12	Ko‘cha		Nomsiz	**Kitobxonlar**	O‘z ma’nosida
55	13	Berk ko‘cha		Nomsiz	**Nur**	O‘z ma’nosida
56	14	Ko‘cha		Nomsiz	**Xalqlar do‘stligi**	O‘z ma’nosida
57	15	Ko‘cha		Nomsiz	**Mardlik**	O‘z ma’nosida
58	16	Ko‘cha		Nomsiz	**Sadoqat**	O‘z ma’nosida
59	17	Ko‘cha		Nomsiz	**Ma’naviyat**	O‘z ma’nosida
60	18	Ko‘cha		Nomsiz	**Qorasoy**	O‘z ma’nosida
61	19	Ko‘cha		Nomsiz	**Onayurt**	O‘z ma’nosida
62	20	Ko‘cha	Amir Temur MFY	Nomsiz	**Otayurt**	O‘z ma’nosida
63	21	Ko‘cha		Nomsiz	**Temuriylar**	O‘z ma’nosida
64	22	Ko‘cha		Nomsiz	**Sog‘lomavlod**	O‘z ma’nosida
65	23	Ko‘cha		Nomsiz	**Ko‘kalamzor**	O‘z ma’nosida
66	24	Ko‘cha		Nomsiz	**Mo‘jiza**	O‘z ma’nosida
67	25	Tor ko‘cha		Nomsiz	**O‘rtabo‘z 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
68	26	Tor ko‘cha		Nomsiz	**O‘rtabo‘z 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
69	27	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Zahmatkash 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
70	28	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Zahmatkash 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
71	29	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Zahmatkash 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
72	30	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Shafoat 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
73	31	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Ixlos 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
74	32	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qorasoy 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
75	33	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qorasoy 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
76	34	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qorasoy 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
77	35	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qorasoy 4-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
78	36	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qadrdonlar 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
79	37	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qadrdonlar 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
80	38	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qadrdonlar 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
81	39	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Kitobxonlar 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
82	40	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Kitobxonlar 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
83	41	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Kitobxonlar 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
84	42	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Kitobxonlar 4-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
85	43	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Kitobxonlar 5-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
86	44	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Kitobxonlar 6-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
87	45	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Mo‘jiza 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
88	46	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Mo‘jiza 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
89	1	Tor ko‘cha	Bog‘ishamol MFY	Тоғишамол	**Tog‘ishamol 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
90	2	Tor ko‘cha		Тоғишамол	**Tog‘ishamol 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
91	3	Tor ko‘cha		Тоғишамол	**Tog‘ishamol 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
92	4	Tor ko‘cha		Тоғйўли	**Tog‘yo‘li 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
93	5	Tor ko‘cha		Тоғйўли	**Tog‘yo‘li 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
94	6	Tor ko‘cha		Тошликон	**Toshlikon 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
95	7	Tor ko‘cha		Тошликон	**Toshlikon 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida

96	1	Ko‘cha		Nomsiz	**Davr**	O‘z ma’nosida
97	2	Ko‘cha		Nomsiz	**Faxriylar**	O‘z ma’nosida
98	3	Ko‘cha		Nomsiz	**Ixtirochilar**	O‘z ma’nosida
99	5	Ko‘cha		Nomsiz	**Osoyishtalik**	O‘z ma’nosida
100	6	Ko‘cha		Nomsiz	**Guldasta**	O‘z ma’nosida
101	7	Ko‘cha		Nomsiz	**Chevarlar**	O‘z ma’nosida
102	8	Ko‘cha		Nomsiz	**Ilmlilar**	O‘z ma’nosida
103	9	Ko‘cha		Nomsiz	**Shams**	O‘z ma’nosida
104	10	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Shams 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
105	11	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Shams 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
106	12	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Shams 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
107	13	Tor ko‘cha		Nomsiz	**O‘rtayo‘l 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
108	14	Tor ko‘cha		Nomsiz	**O‘rtayo‘l 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
109	15	Tor ko‘cha		Nomsiz	**O‘rtayo‘l 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
110	16	Tor ko‘cha		Nomsiz	**O‘rtayo‘l 4-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
111	17	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Sanoatchilar 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
112	18	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qo‘shsaroy 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
113	19	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qo‘shsaroy 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
114	20	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qo‘shsaroy 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
115	21	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Bog‘donlik 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
116	22	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Obodturmush 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
117	23	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Chimqo‘rg‘on 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
118	24	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Chimqo‘rg‘on 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
119	25	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Chimqo‘rg‘on 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
120	26	Tor ko‘cha	.Bunyodkor MFY	Nomsiz	**Chimqo‘rg‘on 4-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
121	1	Ko‘cha		Nomsiz	**Bog‘iston**	O‘z ma’nosida
122	2	Tor ko‘cha	Zargarlik MFY	Nomsiz	**Bog‘iston 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
123	1	Ko‘cha	Zahiriddin Muhammad Bobur	Nomsiz	**Zulfiqor**	O‘z ma’nosida
124	2	Ko‘cha		Nomsiz	**Buyukmillat**	O‘z ma’nosida
125	3	Ko‘cha		Nomsiz	**Bog‘I Dilkusho**	O‘z ma’nosida
126	1	Ko‘cha		Nomsiz	**Ma’naviyatchilar**	O‘z ma’nosida
127	2	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Yangiobod 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
128	3	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Yangiobod 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
129	4	Tor ko‘cha	Zilol MFY	Nomsiz	**Ziyokor 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
130	1	Ko‘cha	Kimyogar MFY	Nomsiz	**Yetakchilar**	O‘z ma’nosida
131	2	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Birodarlik 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
132	3	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Birodarlik 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
133	1	Ko‘cha		Nomsiz	**Yangi O‘zbekiston**	O‘z ma’nosida
134	2	Ko‘cha		Nomsiz	**Uchqun**	O‘z ma’nosida
135	3	Tor ko‘cha	Qassoblik MFY	Nomsiz	**Mirzo ulug‘bek 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
136	4	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Mirzo ulug‘bek 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
137	1	Berk ko‘cha		Nomsiz	**Paxtakar 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
138	2	Berk ko‘cha	Madaniyat MFY	Nomsiz	**Farg‘ona 1-boshiberk ko‘cha**	O‘z ma’nosida

139	1	Ko‘cha		Nomsiz	**Muvaffaqiyat**	O‘z ma’nosida
140	2	Ko‘cha		Nomsiz	**Muruvvatli**	O‘z ma’nosida
141	3	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Zomin 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
142	4	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Zomin 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
143	5	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Zomin 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
144	6	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Abu Rayxon Beruniy 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
145	7	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Muvaffaqiyat 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
146	8	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Muvaffaqiyat 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
147	9	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Muvaffaqiyat 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
148	10	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Tadbirkorlar 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
149	11	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Tadbirkorlar 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
150	1	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Tadbirkorlar 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
151	2	Tor ko‘cha	Mirzo Ulug‘bek MFY	Nomsiz	**Shirin 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
152	1	Ko‘cha	Oqqo‘rg‘onlik MFY	Nomsiz	**Turonzamin**	O‘z ma’nosida
153	2	Ko‘cha		Nomsiz	**Yo‘lchiyulduz**	O‘z ma’nosida
154	3	Ko‘cha		Nomsiz	**Viqorli**	O‘z ma’nosida
155	1	Ko‘cha	Olmazor MFY	Nomsiz	**Muhtasham**	O‘z ma’nosida
156	2	Ko‘cha		Nomsiz	**Hurlik**	O‘z ma’nosida
157	3	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Buloqboshi 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
158	4	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Buloqboshi 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
159	4	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Buloqboshi 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
160	5	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Ipakchi 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
161	6	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Ipakchi 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
162	1	Ko‘cha	Ravalliq MFY	Nomsiz	**Yoshkuch**	O‘z ma’nosida
163	2	Ko‘cha		Nomsiz	**Musaffo**	O‘z ma’nosida
164	1	Ko‘cha	Sayxon MFY	Nomsiz	**Yangisayxon**	O‘z ma’nosida
165	2	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Lalmikor 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
166	3	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Oqbuloq 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
167	4	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Oqbuloq 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
168	5	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Oqbuloq 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
169	6	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Yangi Sayhon 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
170	7	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Yangi Sayhon 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
171	8	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Yangi Sayhon 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
172	1	Ko‘cha	Sangzor MFY	Nomsiz	**Duradgorlik**	O‘z ma’nosida
173	2	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Duradgorlik 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
174	3	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Duradgorlik 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
175	4	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Duradgorlik 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
176	5	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Duradgorlik 4-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
177	1	Ko‘cha	Uchariq MFY	Nomsiz	**Osiyo**	O‘z ma’nosida
178	2	Ko‘cha		Nomsiz	**Umid nihollari**	O‘z ma’nosida
179	3	Ko‘cha		Nomsiz	**Majnuntol**	O‘z ma’nosida
180	4	Ko‘cha		Nomsiz	**Sohil**	O‘z ma’nosida
181	1	Tor ko‘cha	Toshloq MFY	Nomsiz	**Mirishkor 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
182	1	Tor ko‘cha	Turon MFY	Nomsiz	**Sayyod 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
183	2	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Sayyod 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
184	1	Ko‘cha	O‘ratepalik MFY	Nomsiz	**Fidoiylar**	O‘z ma’nosida
185	2	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Baxmal 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida

186	1	Tor ko‘cha	Sayiljoyi MFY	Nomsiz	**Ibn Xavqol 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
187	2	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Ibn Xavqol 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
188	3	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Ibn Xavqol 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
189	4	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Ibn Xavqol 4-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
190	5	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Ibn Xavqol 5-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
191	6	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Birlashgan 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
192	7	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Birlashgan 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
193	8	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Birlashgan 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
194	9	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Birlashgan 4-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
195	10	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Sihatgoh 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
196	11	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Sangzorbo‘yi 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
197	12	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Afsona 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
198	13	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Afsona 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
199	14	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Afsona 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
200	15	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Registon 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
201	16	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Registon 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
202	17	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Registon 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
203	18	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Registon 4-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
204	19	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qili 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
205	20	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qili 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
206	21	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Gulobod 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
207	22	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Gulobod 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
208	23	Boshiberk ko‘cha		Nomsiz	**Sayiljoyi 1-boshi berk ko‘cha**	O‘z ma’nosida
209	1	Ko‘cha	Xayrabod MFY	Nomsiz	**Jannatmakon**	O‘z ma’nosida
210	2	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Sharqiston 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
211	3	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Sharqiston 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
212	4	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Sharqiston 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
213	5	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Sharqiston 4-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
214	6	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qo‘ng‘irot 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
215	7	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qo‘ng‘irot 2-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
216	8	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qo‘ng‘irot 3-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
217	9	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Qo‘ng‘irot 4-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
218	10	Tor ko‘cha		Nomsiz	**Buyuk ipak yo‘li 1-tor ko‘cha**	O‘z ma’nosida
219	1	Ko‘cha	Xalqobod MFY	Nomsiz	**Ziyo**	O‘z ma’nosida
220	2	Ko‘cha		Nomsiz	**Yoshavlod**	O‘z ma’nosida
221	3	Ko‘cha		Nomsiz	**Sharshara**	O‘z ma’nosida
222	4	Ko‘cha		Nomsiz	**Zukkolar**	O‘z ma’nosida

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2023 yil 10 apreldagi
VI-51-55-3-55-K/23-son qaroriga
2-ilova

Gergrafik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi shahar komissiyasining mahallalardagi nomsiz qabristonlarga

tavsiya etilgan nomlari to‘g‘risidagi

TAKLIFLAR

T/R	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Shahar komissiyasi tomonidan taklif ertilgan nom	Izoh
1	Qabriston	Qassoblik mahallasi	Nomsiz	Xo‘jamozor	Jizzax viloyati madaniy meros obyekti nomi Xo'jamozor. XV — XX asrlarga oid madaniy meros obyekti hisoblanadi. «Qassoblik» MFY.
2	Qabriston	Zilol mahallasi	Nomsiz	Xo‘jag‘aziyon	Jizzax manzilgoh sifatida arablar istilosidan avval ham mavjud bo'lgan. Buning yaqqol isboti Jizzaxdagi «Xo'jag'aziyon» (Xo'ja G'azg'on) qabristonidir. Bu qadimiy qabriston V-VI asrlarda, ya'ni arablar istilosidan ilgari ham mavjud edi. «Xo'jag'aziyon»ga hozir ham mayitlar qo'yiladi. Bu qabristondagi Xo'ja G'azg'on va Turk To'g'on maqbaralarini Jizzax eli azal-azaldan ziyorat qilib keladi. Xo'ja G'azg'on qabri ustida ajoyib qayroqtosh turadi. Qayroqtosh kesuvchi qurollarni charxlash uchun mo'ljallangan. Xalq orasida «g'azg'on» so'zi «g'oziy» so'zidan, ya'ni «zabt etuvchi», «urushuvchi» so'zlaridan olinganligini ta'kidlaydiganlar bor. Bundan arablar istilosi davrida Xo'ja G'az¯g'on Jizzaxni bosib olishda ishtirok etgan hamda islom dinini Jizzaxga olib kelgan shaxs bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin.
3	Qabriston	Qaliya mahallasi	Nomsiz	Qaliya	" Qaliya tepa" Mil. avv. IV- XII – mil XV-XVI asrlarga taalluqli Arxeologik obyekt bo'lib, obyekt “Qaliya” MFY, Bunyodkor mahallasi, “B-sanoat” hududida joylashgan. Madaniy meros obyekti.

4	Qabriston	Sholik mahallasi	Nomsiz	Qipchoq	“QIPChOQ” (rus manbalarida — polovetslar, Vizantiya manbalarida — kumanlar) — turkiy xalqlarning eng yirik qabilalaridan biri; o'zbek xalqi etnik tarkibidagi asosiy komponentlardan biri. Qipchoqlar nafaqat o'zbek xalqi entogenezida, balki qator boshqa turkiy xalqlar -qozoqlar, qirgizlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, tatarlar, boshqirdlar, oltoyliklar va Shim.Kavkazdagi ayrim xalqlar (no'g'oylar, qo'miqlar, qorachoylar va b.) shakllanishida muhim rolь o'ynagan. Qipchoqlarga xos etnik belgilar usmonli turklar, vengerlar va b. qator xalqlar tarkibida ham mavjud. Miloddan avvalgi 3- 4-asrlarda Shimoli-G'arbiy Oltoyda yashaganlar. Qipchoqlarning ilk ajdodlaridan bir qismi 6-asrda G'arbiy Oltoydan chiqib, hozirgi Mo'g'uliston va Tuva yerlariga kelib o'rnashadilar. 2-qismi esa Irtish daryosi yaqinidagi dashtlarga ko'chib o'tib, kimaklarga tobe bo'lgan. 8-12-asrlarga kelib, Qipchoqlar Dashti Qipchoq cho'llarida yashagan paytlarida ularning tarkibiga til jihatdan qarindosh bo'lgan ko'plab etnik guruhlar kelib qo'shilgan. 8—9-asrlarda O'rta Osiyo va Qozog'istonning siyosiy va etnik xaritasida jiddiy o'zgarishlar yuz bergan. 10-a. ning oxiri - 11-a. boshlarida g'arbiy qipchoqlar, kimaklar Markaziy va G'arbiy Qozog'iston hududidagi boshqa qabilalarni hamda Uralbo'yi va Volganing o'rta oqimidagi turkiylashgan ugor-fin qabilalarini ham o'zlarining tarkibiga kiritganlar. Shunday qilib, g'arbiy qipchoqlar 11-a. da Ural va Volganing o'rta oqimida yashovchi yirik etnosiyosiy uyushmaga aylandi. 13 —14-a. larda Dashti Qipchoqdan ko'plab qipchoq qabila va urug'larining ko'chib ketishlariga qaramay qipchoqlarning asosiy qismi bu yerda qolib, Oltin Urda aholisining asosiy qismini tashkil qilgan. Ular madaniy taraqqiyoti darajasiga ko'ra o'zlarining hukmdorlari hisoblangan mo'g'ullardan yuqori darajada bo'lgan. OltinO'rda xonlarining boshqaruv tizimidaqipchoq-o'guzlahjasigaasoslangan adabiytil yetakchimavqeniegallar edi.15-a. ning 1-yarmi—16-a.da ko'plab turkiy xalqlar singari g'arbiy qipchoqlarning asosiy qismi no'g'aylar uyushmasi tarkibiga kirgan.Qipchoqlarning Movarounnahr madaniy mintaqalariga yalpi ko'chib kelishi Shayboniyxon davrida 16-a. da va keyinchalik 17-a.da ashtarxoniylar davrida yuz bergan. Shuningdek, Qipchoqlar 16- a. ning 2-yarmi — 18-a. ning boshlarida, jung'arlarning Qozog'istonning jan. hududlariga bostirib kirishi jarayonida ham Zarafshon vohasi va Farg'ona vodiysiga ko'chib kelganlar. Qoraqalpoqlar, qozoqlar bilan birga Qipchoqlarning O'rta Osiyo hududlariga kirib kelishi 2 yo'nalishda bo'lib, ularning bir qismi Sirdaryoning yuqori oqimi bo'ylab Toshkent vohasi va Mirzacho'l zonalarida joylashgan. Qipchoqlarning ikkinchi qismi esa O'rta Zarafshon bo'ylab ketgan. 18-a. ning 20—30-y. larida Q. Shim. Farg'onaning tog' oldi mintaqalariga kelib o'rnashganlar. Faqatgina ma'lum miqdordagi Qipchoqlar gina Toshkent vohasida qolgan. Bu davrda q. 4 ta asosiy guruhga: qora qipchoq, sariq qipchoq, xitoy qipchoq va qulon qipchoqlarga bo'lingan. Ularning har biri, o'z navbatida, mayda guruhlarga bo'lingan. Qipchoqlarning ayrim guruhlari 20-a. boshlarigacha o'zlarining urug'-qabilaviy bo'linishlarini saqlab qolganlar.Q 20-a. boshlariga qadar yarim o'troq holda yashab, o'zlari uchun an'anaviy bo'lgan chorvachilikni dehqonchilik bilan qo'shib olib borganlar. Statistik materiallardan Qipchoqlarning o'zbek va qirg'izlar bilan qo'shilib ketishi 19-a. oxiri — 20-a. boshlarida ancha jadal kechganligi ma'lum. Masalan 19-a. ning 90-y. larida Farg'ona vodiysidagi Qipchoqlar soni 70 ming nafarga, 1917 y. ga kelib, 44 ming nafarga teng bo'lsa, 1926 y. ga kelib esa ularning vodiydagi soni 33,6 ming nafarga tushib qolgan.Farg'ona Qipchoqlar ining asosiy qismi Andijon uyezdida, Andijonsoy, Norin daryosining quyi qismi, Moylisuv va Qoradaryo atrofidagi qishloqlarda yashagan. Ularning ma'lum qismi Namangan uyezdi Kosonsoy, Sumsar, Chodak, Podsho-Ota, Norin, G'ova kabi daryo va soy qavzalarida hamda Yangiariq kanali atrofidagi manzilgohlarda joylashgan. Farg'ona uyezdi hududidagi Shahonsoy va Aravonsoy, Qo'qon uyezdidagi So'x va Isfara daryosi o'zanlarida ham bir necha qipchoq qishloqlari mavjud bo'lgan.19—20-a. boshlarida vodiy hududida yashayotgan Q. K. Sh. Shoniyozovning fikricha, 4 ta katta guruhga bo'lingan. Bular – q. (yoki toza qipchoqlar), qirg'izqipchoqlar, xitoy-qipchoqlar va sartqipchoqlar. O'z navbatida, yuqorida sanab o'tilgan qipchoq guruhlari bir qancha urug'larga bo'linganlar. Qo'g'ay, bug'och, kumushoy, o'lmas, yashiq, jaydoq, puchug'oy, elatan, bo'g'oz, og'im, toz, sirmoq, yettiqashqa, qutluqsaid, cherek, ko'kmo'yin, to'rtayg'ir (yoki 4 og'ayni), to'rttoy, tovuldi, chang'roqchi, chiyal, ko'lon, oqbo'yra, qorabovur, boshqirt, tikan, qoratikan, sari-qipchoq, qoramoyun kabi urug'lari Farg'ona vodiysida qayd etilgan.Qipchoqlarning ko'pchiligi asta-sekin o'troqlashib, dehqonchilik b-p shug'ullangan. Ayrim guruhlari 20-a. boshlarigacha yarim o'troq holda yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan mashg'ul bo'lganlar. 20-a. ning 1-choragida O'zbekiston chegarasida yashovchi Qipchoqlarning umumiy soni 127 ming kishi bo'lib, shundan 52 ming kishi Zarafshon vodiysida, 42,2 ming kishi Farg'ona vodiysida yashagan. Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm vohala rida ham Qipchoqlarning ayrim guruhlari bo'lgan.

5	Qabriston	Kimyogar mahallasi	Nomsiz	1-Birodarlik	Rus millatiga mansub fuqarolar dafn etiladigan qabriston. Birodarlik o'z ma'nosida qo'llanilgan. Hozirda ushbu qabristonga dafn etilmaydi.
6	Qabriston	Hamid Olimjon mahallasi	Nomsiz	Yallibo‘yi	Jizzax viloyati bo'yicha qrim, tatar millatiga mansub fuqarolar dafn etiladigan qabriston bo'lib, yashil makon degan ma'noni anglatadi.
7	Qabriston	O‘ratepalik mahallasi	Nomsiz	G‘ishtlik	Qabriston atrofi g'isht bilan o'ralganligi uchun nomi ham g'ishlik deb yuritilgan.
8	Qabriston	Bunyodkor mahallasi	Nomsiz	Qumota	«QUM OTA» Mazkur nom bilan izlanishlarimiz quyidagilarni berdi… «…Ulug' kamolotga yetgan avliyoullohlardan birlari mavlono Lutfulloh rahmatullohi alayhi erdilar. Bu zoti bobarokot Laylakkon degan qishloqdan bo'lib, ilm talabida Samarqandga kelganlar. Bu zoti bobarokot viloyatlarini Shohruhiya der erdilar. (Mirzo Ulug'bek zamonidagi voqealar tilga olinayotir, o'sha paytda Jizzax va Zomin hududlari Shohruhiya viloyatiga kiritilgan.) Bu oliyhimmat inson Samarqand shahrida ilm olishga mashg'ul bo'ldilar. Nihoyat darajada olim bo'ldilar, hamdarslari mavlono Ismoil erdilar. Bu ikki zoti bobarokotlar, ilmi zohiriy va ilmi botiniyga mumtoz bo'lgan erdilar. Hazrati Shayxi Buzrukvor bularning ikkovlariga xonaqoning sharqiy tomonidagi hujradan joy berganlar. Bu zoti bobarokotlar uch yil masjidda itikofda o'ltirdilar. Hazrati Shayxi Buzrukvorning zavjai mutahhiralari uch yil bu zotlarga o'z qo'llari birlan taom pishirib berganlar. Bular uchun kiyim-kechaklar olib berganlar. Mavlono Sayid Muhammad rahmatullohi alayhi aytadilarkim, mavlono Lutfulloh rahmatullohi alayhi hech uxlamas erdilar. Uyqu g'alaba qilsa, qiblaga qarab ibodat qilgudek o'tirib uxlar erdilar. Hazrati Shayxi Buzrukvori buyurdilarkim, «Ey Lutfulloh, sen o'z viloyatingga borib, odamlarni haqiqatga da'vat qilgin!» Mavlono Lutfulloh rahmatillohi alayhi qabul qilmadilar. Hazrati Shayxi Buzrukvor aytdilar: «Ey Lutfulloh, maslahat shuldirkim, borursan!». Mavlono Lutfulloh rahmatillohi alayhi «Xo'p bo'lur», deb o'z viloyatlari Shohruhiyaga ketdilar. Andak vaqtda Shohruhiyaning odamlari bilib qoldilar, ko'plari murid bo'ldilar. Bu zoti bobarokotning barokotidin bu viloyat obod bo'ldi. Beva-yu bechoralar kamoli xursandchilikdan duo qilur erdilar. Naqldurkim, mavlono Lutfulloh rahmatullohi alayhidan Hazrati Shayxga bir belbog' va bir qamchi yetib keldi. Shul vaqt xonaqohda jamoat bor erdi. Hazrati Shayxi Buzrukvor aytdilar: «Ey darveshlar, bilurmisizlar, mavlono Lutfulloh nima sababdan menga belbog' va qamchi yuborgandurlar?». Darveshlar aytdilar: «Hech narsa bilmasmiz». Hazrati Buzrukvor aytdilar: «Buning sababi shuldirkim, mavlono Lutfulloh aytadilarkim, Yo Shayxi Buzrukvor, himmat kamari belimdan bo'shalgandur, yordam qilib belimni mahkam bog'lang. Qamchi yuborganlarining sababi uldirkim, ey Shayxi Buzrukvor, mening ruhim ibodatga sustlik qilur. Bu qamchi bilan mening nasabimni qamchilang, toki ibodat qilishda sustlik qilmasun». Naqldurkim, Mirzo Jo'gi urush qilib kelib, Laylakkonni qamal qildi. Mirzo jo'gi mavlono Lutfullohni talab qilib chaqirib olmoqchi bo'ldi. Xalq bunga rozilik bermadi. Mavlono Lutfulloh muroqibaga o'tirdilar. Mirzo jo'gi askarlari birlan Laylakkon qal'asini tirga tutdi. Ammo qal'aga hech ta'sir qilmas erdi. Bu holni ko'rgan Mirzo jo'gi askarlarini olib qaytib ketdilar. Mavlono Muhammadi Turkistoniy ayturlarkim, men ul qal'aning urushida o'zim bor erdimki, bu hikoyaning yolg'oni yo'qdur. Naqldurkim, mavlono Lutfulloh shul makonda vafot topganlar, jasadi muboraklari o'shal yerda qolgandur. «Hazrati Bashir tarixi» Sh.Rashidov fondi. Toshkent.1994 yil.)
9	Qabriston	Bunyodkor mahallasi	Nomsiz	Jilovdor ota	JILOVDOR — o'tmishda hukmdor otini qabul qilib oluvchi shaxs, hukmdor otini jilovlash bilan birga, uning otga minishi va tushishiga ko'maklashgan. Jilovdor hokim otxonasiga yaqin xonada istiqomat qilgan va bu xona jilovxona deb atalgan. Hukmdor qarorgohiga kelgan mehmonlarning otlarini Jilovdor olib qolib, to o'z yurtiga qaytguniga qadar oziqlantirgan. Har bir viloyat hokimining maxsus Jilovdori bo'lgan. Mahalliy aholi istagi bilan shu nom taklifi berildi.

10	Qabriston	Nurliobod mahallasi	Nomsiz	So‘loqli	O'zbeklarning eski shevalarini va odatlarini o'ziga xos tarzda saqlaganlari, asosan Jizzax viloyatida bo'ladilar (Qirq, Qangg'li, Soliq, Turk, Turkman, Nayman, Mang'it, Qitoyyuz, Suloqli, Tuyoqli, Olacha, Burqut, Serkali, Baymoqli, Jaloyir, Kirgiz, Yuz, Quyontuyoqli, Parchayuz, Qarabcha, Qushchi, Uroqli, To'qjori, Qo'shtamg'ali, Saroy, Qonjig'ali). * * * So'loqli – yuz qabilasining tarmoqlaridan biri. So'loq so'zining bir necha ma'nosi ma'lum – 1) qorajigar, taloq; 2) qo'y-echki qulog'ining biron joyini kesib em solish, tamg'alash usullaridan biri — quloqning oldingi tomoni o'yib kesilsa, oldingi so'loq, keying tomoni o'yib kesilsa keying so'loq deyilgan; 3) aravaning o'qiga solinadigan temir.
11	Qabriston	Amir Temur mahallasi	Nomsiz	Jilli-g‘ulli	Jilli-g'uli- shamollar g'ulg'ulasi degan ma'noni bildiradi. Hudud shamol yo'lida joylashganligi tufayli, mahalliy aholi shunday yuritgan.
12	Qabriston	Sangzor mahallasi	Nomsiz	Sangzor	Sangzor – Jizzax viloyatining yirik daryo nomi bu bilan birga daryo Turkiston tog' tizmasining ajralmas qismidir.
13	Qabriston	Amir Temur mahallasi	Nomsiz	1-Ko‘lota	Ushbu qabriston oldida ilgari ko'l mavjud bo'lgan, keyinchalik ko'l qurib, hudud o'troqlashgan. Atrofidagi hududga odamlar dafn qilina boshlangan. Ota-bobolar hurmatiga qabriston nomi Ko'l ota deb yuritilgan. Hozirda ushbu qabristonga dafn etilmaydi.
14	Qabriston	Amir Temur mahallasi	Nomsiz	1-Qorasoy	Qorasoy- qora so'zi bazan rang ma'nosini ifodalasa, ko'pincha etnonim ma'nosida kelishi ham mumkin. Qorasoy deganda suvning rangi emas, balki soy yoki vodiyning rangi nazarda tutiladi. Suv oqib o'tadigan soylik qoramtir jinslardan tashkil topgan bo'lsa, qorasoy deyilgan. Uzoqdan qaralganda soylik qora bo'lib ko'ringani uchun ham shunday yuritilgan va nom gidronim asasida yaratilgan. Hozirda ushbu qabristonga dafn etilmaydi.
15	Qabriston	Amir Temur mahallasi	Nomsiz	2-Ko‘lota	Ushbu qabriston oldida ilgari ko'l mavjud bo'lgan, keyinchalik ko'l qurib, hudud o'troqlashgan. Atrofidagi hududga odamlar dafn qilina boshlangan. Ota-bobolar hurmatiga qabriston nomi Ko'l ota deb yuritilgan.
16	Qabriston	Amir Temur mahallasi	Nomsiz	2-Qorasoy	Qorasoy- qora so'zi bazan rang ma'nosini ifodalasa, ko'pincha etnonim ma'nosida kelishi ham mumkin. Qorasoy deganda suvning rangi emas, balki soy yoki vodiyning rangi nazarda tutiladi. Suv oqib o'tadigan soylik qoramtir jinslardan tashkil topgan bo'lsa, qorasoy deyilgan. Uzoqdan qaralganda soylik qora bo'lib ko'ringani uchun ham shunday yuritilgan va nom gidronim asasida yaratilgan.
17	Qabriston	Sayhon mahallasi	Nomsiz	Qorg‘ontepa	Qo'rg'on-Qo'rg'ontepa
18	Qabriston	Kimyogar mahallasi	Nomsiz	2-Birodarlik	Balandlik V-VI asrlarda jamoaviy ko'milish, 5 va undan ko'p mayitlardan iborat qabrga nisbatan, yana bir tahminlar, balandlik-kichik shahar manosida ham keladi

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2023 yil 10 apreldagi
VI-51-55-3-55-K/23-son qaroriga
3-ilova

Geografik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi shahar komissiyasining shahardagi maydon, ziyoratgoh, xiyobon va istirohat bog‘iga tavsiya etilgan nomlari to‘g‘risidagi

TAKLIFLAR

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Shahar komissiya tomonidan berilgan taklif	Izoh
1	Maydon	Sayiljoyi mahallasi	Nomsiz	**Mustaqillik**	O‘z ma’nosida
2	Maydon	Obod mahallasi	Nomsiz	**Xotira**	O‘z ma’nosida
3	Istirohat bog‘i	Jizzaxlik mahallasi	Nomsiz	**O‘rda**	Ushbu istirohat bog‘i o‘rnida ilgari xonlarning qarorgohi bo‘lgan, shaharning paydo bo‘lishi va shakllanishida bu yerning alohida tarixiy o‘rni bor. Tarixiy nom hisoblanadi.
4	Istirohat bog‘i	Jizzaxlik mahallasi	Nomsiz	**Hamid Olimjon va Zulfiya**	Istirohat bog‘ida Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim haykallari qo‘yilganligi uchun shun nom taklifi berildi.
5	Xiyobon	Jizzaxlik mahallasi	Nomsiz	**Sharof Rashidov**	Sharof Rashidov haykali qo‘yilgan va davlat arbobining sharafiga maydonga shu nom taklif etildi.

6	Ziyoratgoh	Jizzaxlik mahallasi	Nomsiz	**Boboyakka**	«BOBOYAKKA» QADAMJOSI Mazkur qadamjoy haqida bir necha afsonalar borki, ular mazmun jihatidan biri birini to‘ldiradi… «Ibrohim ismli bir yigit Xorazm shohining qiziga oshiq bo'lib, uning zulfini tayoqqa tor qilib tortib soz yasab oshuqlik kuyini chalib yuraveribdi. Bu xonishlar dovrug'i Xorazmshohqulog'iga yetib boribdi va uni zindonga hukm qilibdi. Yaxshilar amallab Ibrohimni zindondan qochiribdilar. Shoh darg'azab bo'lib uning izidan odam yuboribdi. Malika ham bu gapdan xabardor bo'lib sochini beliga bog'lab uni qutqarmoqqa chog'lanib yo'lga tushibdi. Qotillar Ibrohimga Jizzaxda yetib olib chopib tashlabdilar va asodan yasalgan sozini qabri ustiga tug'qilib qadab qo'yibdilar… Malika zor yig'lab «Yakka oshig'im erding, bo yakka qolding!» deya iltijo qilgan ekan…» (Musaxon Imomov, «Boboyakkadagi muhabbat tug'i yoki Jizzax O'rdasida qatl qilingan oshiq haqida rivoyat». Yig'ma materiallar). * * * «Boboyakkaning asl ismi Boboqambar bo'lib «Boboravshan» dostonida Boboqambar shaklida berilib o'zbek xalq og'zaki ijodi na'munalaridan «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi dostonlardan qirqdan ortig'ida «Soqibulbul» obrazi orqali bayon qilingan. Yana bir manbada Boboqambar payg'ambarimiz Muhammad (SAV)ning amakisi Abu Tolibning farzandi Ali (Hazrat Ali)ning otboqari bo'lganligi, uning o'tkir tabib, shoir, tarixchi, xushovoz xonanda va ot tanlovchi fazilatlariga ega bo'lganligi qayd etiladi. …Boboqambar zamona zayli bilan Xorazm shohi saroyida xizmatda bo'ladi. Shohning Qorasoch ismli qizini yaxshi ko'rib qolganligi uchun Xorazmshoh undan qutilish maqsadida Boboqambarni olis Jizzaxning O'rda qal'asiga darbozabegi qilib jo'natadi. Buni eshitgan qiz ham uning ortidan jo'naydi. Xorazmshoh bir guruh lashkar yuborib «Boboqambarga tegmanglar, qizimni olib qaytinglar» degan topshiriq beradi. Ammo, lashkarboshining xusumati bor edi… Darboza oldida endigina Qorasoch bilan ko'rishib turgan paytida Boboqambarningelkasiga qilich soladi… Qorasoch chodir chamaniga o'ralgancha «Bobo yakka qoldi» deya zor yig'lab qaytib ketgan ekan. Hikoyat qilishlaricha, ana shundan beri Jizzaxning O'rdasidagi Boboqambar shahid bo'lgan joy mahalliy aholi tomonidan «Boboyakka» deya e'zozlanib kelinadi. Juda ko'p joylarda, ayniqsa, Xorazmda Boboqambarni san'at ahlining peshvosi sifatida izzatlaydilar, «Boboqambar» otlig' kuy ham bor.